

BADIY TARJIMADA STILISTIK BIRLIKLARNI IFODALASH USULLARI

Ahatova Dilshoda Bahodir qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

ahatovadilshoda0@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-8083-8066>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18513863>

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonining o'ziga xos jihatlari, tarjimon faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjima nazariyasining muhim tamoyillari va amaliy tajribalar yoritilib, asliyatdagi frazeologik birliklarni tarjimada ifodalash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Badiiy matnning uslubiy xususiyatlarini saqlagan holda mazmunan adekvat tarjima yaratish muammosi tadqiqotning asosiy obyekti sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, frazeologik birliklar, tarjima jarayoni, ijodiy yondashuv, mazmuniy adekvatlik.

Аннотация. В статье рассматриваются специфические особенности перевода художественных произведений на узбекский язык, основные трудности, с которыми сталкивается переводчик, а также пути их преодоления. Анализируются теоретические основы перевода и практический опыт переводческой деятельности, при этом особое внимание уделяется проблеме передачи фразеологических единиц в переводе. Сохранение стилистических особенностей оригинального текста при обеспечении смысловой адекватности перевода рассматривается как один из ключевых аспектов исследования.

Ключевые слова: художественный перевод, фразеологические единицы, переводческий процесс, творческий подход, смысловая адекватность.

Annotation. This article explores the specific features of translating literary works into the Uzbek language, the main challenges encountered by translators, and possible ways to address them. The study examines key principles of translation theory alongside practical translation experience, with particular emphasis on the rendering of phraseological units. The issue of preserving the stylistic features of the source text while ensuring semantic adequacy is considered one of the central focuses of the research.

Keywords: literary translation, phraseological units, translation process, creative approach, semantic adequacy.

Kirish. Tarjima nazariyasi bugungi kunda o'zbek tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshqa tillarda yaratilgan badiiy va ilmiy asarlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi tilimizning boyishiga, yangi tushunchalar va ifoda vositalarining kirib kelishiga xizmat qilib kelmoqda. Shu jihatdan tarjima jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy ahamiyatga ham ega. Tarjima jarayoniga bo'lgan munosabat har bir davrda turlicha bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan tarjimon oldiga qo'yiladigan talablar ham murakkablashib borgan. Ayniqsa, XX asrda tarjima masalalarini ilmiy asosda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib, tarjimonlik faoliyatini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar olib borila boshlandi. Natijada tarjimashunoslik alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bordi. Tarjima madaniyatlararo aloqalarning muhim vositasi bo'lib, u turli xalqlarning adabiy va madaniy merosini bir-biriga yaqinlashtiradi. Badiiy asarning tarjimasi orqali o'quvchi nafaqat asar mazmuni, balki muallifning dunyoqarashi, estetik

qarashlari bilan ham tanishadi. Shu sababli tarjima jarayoni oddiygina matnni ko'chirish emas, balki ijodiy yondashuvni talab qiladigan murakkab faoliyatdir. O'zbek tarjimonlik an'analari ham asta-sekin shakllanib, turli bosqichlardan o'tgan. Bugungi kunda bu soha yangi ilmiy yondashuvlar bilan boyib borayotgani, tarjima nazariyasiga bo'lgan qiziqish ortib borayotgani bilan ahamiyatlidir. Ingliz adabiyotining o'zbek tiliga tarjima qilinishi ham bu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zbek kitobxonining jahon adabiyoti bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy tarjima muammolari jahon tarjimashunosligida ham, o'zbek filologiyasida ham doimiy muhokama markazida bo'lib kelmoqda. Ilmiy manbalarda tarjima jarayoni oddiy til almashtirish emas, balki muallifning badiiy dunyoqarashi va individual uslubini boshqa til muhiti sharoitida qayta yaratish jarayoni sifatida talqin etiladi. Shu sababli ko'plab tadqiqotlarda tarjimada mazmun bilan bir qatorda uslubiy qatlamni saqlash masalasi alohida e'tibor markaziga qo'yiladi. Ingliz adabiyotining yirik namoyandalari ijodi tarjimada stilistik murakkabliklar tug'diradigan yorqin namunalar sirasiga kiradi. Masalan, Uilyam Shekspir asarlaridagi she'riy nutq, metafora va so'z o'yinlari tarjimada aynanligicha berilishi qiyin bo'lgan unsurlardir. Shekspir dramalaridagi obrazli iboralar va kinoyali ifodalar o'zbek tiliga ko'chirilganda tarjimon ko'pincha mazmunni saqlagan holda, shakl jihatidan mos keladigan yangi ifodalarni topishga majbur bo'ladi. Bu holat tarjimaning ijodiy xarakterga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi.

V. N. Komissarov ta'kidlaganidek, "tarjima — bu faqat til birliklarini almashtirish emas, balki asliyatdagi kommunikativ vazifani boshqa til vositalari orqali qayta yaratish jarayonidir" [1.49]

Shuningdek, ingliz adabiyotining boshqa mashhur vakillari — Charlz Dikkens, Jeyn Ostin, Jorj Oruell, Oskar Uayld kabi yozuvchilarning asarlari ham tarjima jarayonida turli stilistik muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan, Dikkens asarlarida tasviriy tafsilotlarning ko'pligi va emotsional ohangning kuchliligi tarjimada matn hajmini saqlash bilan birga badiiy ta'sirni yo'qotmaslik masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Jeyn Ostin romanlarida esa kinoya va nozik psixologik tasvirlar tarjimada ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi. Oskar Uayld ijodiga xos bo'lgan istehzoli nutq va aforizmlar tarjimada bevosita ko'chirilganda o'zining badiiy jozibasini yo'qotishi mumkin. O'zbek tarjimashunosligida adib-tarjimonlarning tajribasi alohida ahamiyatga ega. Abdulla Qahhor va G'afur G'ulom singari yozuvchilarning tarjimonlik faoliyati badiiy matnni o'zbek tiliga tabiiy va ta'sirchan tarzda ko'chirish mumkinligini amalda namoyish etadi. Ular tarjima jarayonida asliyatga ko'r-ko'rona ergashishdan ko'ra, o'zbek tilining ichki imkoniyatlariga tayangan holda matnni qayta yaratishga harakat qilganlar. Natijada tarjima o'quvchi uchun begona matn sifatida emas, balki ona tilida yaratilgandek qabul qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda tarjimon shaxsining badiiy didi va madaniy saviyasi tarjima sifati bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi. Xorijiy mualliflarning asarlarini tarjima qilishda faqat tilni

bilishning o'zi yetarli emas, balki muallif yashagan davr, ijtimoiy muhit va madaniy kontekstni tushunish ham muhim hisoblanadi. Masalan, Shekspir davridagi ijtimoiy munosabatlar va nutq uslubi bugungi o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi uchun tarjimon ma'lum darajada izohli yoki moslashtirilgan yondashuvdan foydalanishga majbur bo'ladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada stilistik muvofiqlikni ta'minlash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u tarjimondan yuqori darajadagi til madaniyati, adabiy tafakkur hamda ijodiy yondashuvni talab etadi. A. Qahhor, G'afur G'ulom tarjimalari hamda Shekspir, Dikkins, Ostin, Oruell, Uayld kabi yozuvchilar asarlari tarjimasini bo'yicha to'plangan tajribalar mazkur tadqiqot uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. J. Catfordning fikricha, "tarjima jarayonida lingvistik birliklarning to'g'ridan-to'g'ri mos kelmasligi stilistik moslashtirishni zarur qiladi" [1.89]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot badiiy tarjimada stilistik uslubni saqlash muammolarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda qiyosiy-tahliliy yondashuv asosiy metod sifatida tanlandi. Tadqiqot materialini sifatida ingliz va o'zbek adabiyotining mashhur namoyandalari asarlaridan olingan parchalar tanlab olindi. Xususan, Uilyam Shekspir dramalaridan ayrim dialoglar, Charlz Dikkins va Jeyn Ostin romanlaridan tavsifiy epizodlar, shuningdek, Abdulla Qahhor va G'afur G'ulom tomonidan amalga oshirilgan tarjima namunalari parchalar tahlil qilindi. Bu tanlov asarlarning badiiy uslubi turli qatlamlarni qamrab olishini inobatga olgan holda amalga oshirildi. E. Nida tarjimada mazmuniy ekvivalentlik masalasiga alohida e'tibor qaratib, "tarjimaning asosiy vazifasi o'quvchida asliyat o'quvchisida yuzaga kelgan ta'sirga yaqin emotsional ta'sirni uyg'otishdir" [1.122]

Tadqiqot jarayonida bir nechta metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Avvalo, stilistik birliklarni aniqlash usuli qo'llanildi. Bunda metafora, epitet, kinoya, so'z o'yini, frazeologik birliklar kabi badiiy ifoda vositalari ajratib olindi. Masalan, Shekspir asarlaridagi metaforik ifodalar o'zbekcha tarjimalarda qanday talqin qilangani alohida ko'rib chiqildi. Shuningdek, Dikkins asarlaridagi emotsional tavsiflar tarjimada qanchalik darajada o'z ta'sir kuchini saqlab qolganiga e'tibor qaratildi.

Keyingi bosqichda qiyosiy tahlil metodi orqali asliyat matni va tarjima matni o'rtasidagi uslubiy moslik darajasi baholandi. Bu jarayonda so'zma-so'z tarjima qilingan joylar, mazmunan moslashtirilgan ifodalar va ijodiy qayta talqin qilingan parchalar alohida guruhlarga ajratildi. Masalan, Jeyn Ostin asarlaridagi nozik kinoya unsurlarining o'zbekcha tarjimada ochiqroq ifoda bilan berilgani holatlari qayd etildi. Bu esa tarjimonning o'quvchi auditoriyasini hisobga olgan holda moslashtirish yo'lini tanlaganini ko'rsatadi.

Shuningdek, semantik-pragmatik tahlil usuli orqali stilistik birliklarning mazmuniy va emotsional yuklamasi baholandi. Bunda muayyan iboraning asliyatda qanday kayfiyatni ifodalashi va tarjimada o'sha kayfiyat saqlanib qolgan-qolmaganligi aniqlashga

harakat qilindi. Masalan, Oskar Uayld asarlariga xos istehzoli ohang tarjimada neytrallashib ketgan holatlar tahlil qilindi va bunday o'zgarishlarning o'quvchiga ta'siri baholandi.

Tadqiqotda sifat tahlili bilan bir qatorda tavsifiy yondashuv ham qo'llanildi. Bu metod orqali aniqlangan misollar umumlashtirilib, tarjimada uchraydigan tipik stilistik muammolar tasniflandi. Natijada stilistik ekvivalentlikni ta'minlashga qaratilgan samarali strategiyalar, jumladan, mazmuniy moslashtirish, kontekstual tarjima va zarur hollarda izohli yondashuvning afzalliklari ko'rsatib berildi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya badiiy matn tarjimasida stilistik o'zgarishlarning sabab va oqibatlarini tizimli ravishda ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali olingan natijalar keyingi boblarda keltiriladigan tahlillar uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingliz adabiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida stilistik moslikni saqlash tarjimon oldidagi eng murakkab vazifalardan biridir. Asliyat matnidagi badiiy ifoda vositalari ko'pincha boshqa madaniy muhitga xos bo'lgani sababli ularni so'zma-so'z tarjima qilish kutilgan badiiy ta'sirni bermaydi. Shu bois tarjimonlar ko'pincha mazmuniy va emotsional ekvivalentlikni ta'minlash yo'lini tanlaydilar. Tadqiqot davomida Uilyam Shekspir asarlaridan olingan parchalar tahlili shuni ko'rsatdiki, uning dramatik nutqiga xos obrazlilik va metaforalar o'zbekcha tarjimalarda ba'zan soddalashtirilgan, ayrim hollarda esa milliy tasavvurga mosroq ifodalar bilan almashtirilgan. Masalan, Shekspir dramatik monologlaridagi kuchli hissiy fon ayrim tarjimalarda qisqartirish yoki sintaktik soddalashtirish orqali yumshatilgan. Bu holat, bir tomondan, matnning o'qilishi osonlashishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, muallif uslubining o'ziga xosligini qisman yo'qotishiga olib kelgan. Charlz Dikkens asarlaridagi ijtimoiy tanqid va yumor unsurlari tarjimada asosan mazmunan saqlangan bo'lsa-da, kinoyaviy ohangning kuchi ba'zi joylarda yetarlicha sezilmaydi. Dikkensga xos uzun, tavsifga boy jumlar o'zbekcha tarjimalarda qisqaroq va soddalashtirilgan ega bo'lib, bu esa matnning ritmik tuzilishini o'zgartirgan. Biroq mazkur moslashtirish o'zbek o'quvchisi uchun matnni tushunarliroq qilishga xizmat qilgani bilan izohlanadi. Jeyn Ostin va Oskar Uayld kabi mualliflarning asarlarida uchraydigan nozik kinoya va istehzo tarjimada eng ko'p qiyinchilik tug'diradigan jihatlardan biri ekanligi aniqlandi. Ayrim tarjima namunalarda bu unsurlar neytrallashgan yoki izoh talab qiladigan darajada ochiqroq shaklda berilgan. Natijada asliyatdagi yashirin ma'no qatlamlari to'liq aks etmagan holatlar kuzatildi. O'zbek tarjima maktabi vakillari bo'lgan Abdulla Qahhor va G'afur G'ulomning tarjima tajribasi tahlili shuni ko'rsatdiki, ular asliyat matnining ruhini saqlash bilan birga, o'zbek tilining tabiiy ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalanganlar. Masalan, G'afur G'ulom tarjimalarida dialoglarning jonli, og'zaki nutqqa yaqin shaklda berilishi o'quvchida asarga yaqinlik hissini uyg'otadi. Abdulla Qahhor tarjimalarida esa badiiy ixchamlik va ifoda aniqligi ustuvor bo'lib, murakkab jumlar

o‘zbek tilining sintaktik me‘yorlariga mos tarzda qayta tuzilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarjimada stilistik ekvivalentlikni ta‘liq ta‘minlash amalda kam uchraydi. Biroq tajribali tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan kontekstual moslashtirish, mazmuniy yaqinlashtirish va ijodiy yondashuv usullari badiiy ta‘sirni imkon qadar saqlab qolishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy madaniyatga xos obraz va iboralarni mos muqobillar orqali berish samarali strategiya sifatida namoyon bo‘ldi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari ingliz–o‘zbek badiiy tarjimasida stilistik muvofiqlikni ta‘minlash uchun tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki adabiy didi va madaniy tafakkuriga ham katta ehtiyoj borligini ko‘rsatdi. Shu bois tarjimon shaxsiy ijodiy pozitsiyaga ega bo‘lishi, asliyat ruhini chuqur anglab, uni o‘zbek tilining imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtira olishi muhim omil sifatida baholandi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek badiiy adabiyoti namunalari tarjimasi misolida tarjima jarayonining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritishga qaratildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, badiiy tarjima faqat leksik birliklarni almashtirish emas, balki muallif uslubini, obrazlar tizimini, emotsional-ekspressiv qatlamni va madaniy kontekstni yangi til muhitida qayta yaratish jarayonidir. Ayniqsa, kinoya, metafora, ramziy ifodalar kabi badiiy vositalar tarjimada eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradigan unsurlar sirasiga kiradi. Tadqiqot davomida Uilyam Shekspir, Charlz Dikkins, Oskar Uayld singari ingliz yozuvchilarining asarlari o‘zbekcha tarjimalar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ayrim tarjimalarda asliyatdagi badiiy ohang va kinoyaviy mazmun ta‘liq saqlanmagan, biroq mazmuniy aniqlikni ta‘minlash yo‘lida ma‘lum darajada moslashtirish amalga oshirilgan. Bu holat tarjimonning o‘quvchi auditoriyasini hisobga olgan holda tanlagan strategiyasi bilan izohlanadi. Shuningdek, Abdulla Qahhor va G‘afur G‘ulom kabi o‘zbek tarjimon-yozuvchilarining tarjima tajribasi badiiy moslashtirishning muvaffaqiyatli namunasi sifatida namoyon bo‘ldi. Ular asliyat ruhini saqlagan holda, matni o‘zbek tilining tabiiy ifoda vositalari bilan qayta yaratishga intilganlar. Natijada tarjima matni sun‘iy emas, balki o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli va badiiy jihatdan ta‘sirchan ko‘rinish kasb etgan. Umuman olganda, tadqiqot xulosalari shuni tasdiqlaydiki, badiiy tarjimada mutlaq ekvivalentlikka erishish deyarli imkonsiz. Biroq tarjimonning lingvistik kompetensiyasi, adabiy didi va madaniyatlararo tafakkuri yuksak bo‘lgan taqdirda, asliyatning estetik qiymatini imkon qadar ta‘liq saqlab qolish mumkin. Shu bois tarjimashunoslik sohasida tarjimon shaxsining ijodiy roli va uning individual uslubi muhim ilmiy masala sifatida e‘tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barkhudarov, L. S. Til va tarjima muammolari. – Moskva: Nauka, 1975.
2. Komissarov, V. N. Tarjima nazariyasining umumiy masalalari. – Moskva: Vysshaya shkola, 1990.
3. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. A Comparative Stylistics of French and English. – Amsterdam: John Benjamins, 1995.
4. Nida, E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E. J. Brill, 1964.
5. Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. – Oxford: Oxford University Press, 1965.

6. Qahhor, A. Tarjimalar va tarjimon mahorati haqida mulohazalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987.
7. G‘ulom, G‘. Adabiy tarjima masalalari. – Toshkent: Fan, 1978.
8. Shakespeare, W. Hamlet. – London: Penguin Classics, 2003.
9. Dickens, C. Oliver Twist. – London: Penguin Classics, 2002.
10. Wilde, O. The Importance of Being Earnest. – London: HarperCollins, 2000.
11. Salomov, G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
12. Karimov, S. Badiiy tarjimada uslub va ekvivalentlik masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

